

## YOSH BOLALARNING RIVOJLANISHIDA TASHQI MUHIT TA'SIRI

Muallif: **Rahmonova Sevara**

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim  
yo'nalishi talabasi*

*Ilmiy rahbar: **Ishmuradov Bunyodjon Farxodovich***

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada yosh bolalarning ontogenez davridan boshlab toki tug'ulib ulg'ayguniga qadar bo'lgan jarayon, ona va bola o'rtasidagi sir ulardagi har hil og'ish holatlari va boshqa muamolar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Genetik xarakter, embrion psixologiyasi, psixologik xarakter, ona va bola o'rtasidagi masalalar, ta'lim va tarbiya tushunchalari.

Bolaning ota-onasi tomonidan o'tgan genlari jamlanmasi va uning fiziologik ko'rinishi va xarakterida namayon bo'lishi bu "Genetik xarakter,, deb ataladi. Huddi otasi kabi jiddiy yokida onasi o'xshab sho`x quvnoq bo'ladi deganimizda bolaning genetik xarakterini ifodalayotgan bo'lamiz. Bola ona qorniga tushgan vaqtdan boshlab ba'zi fiziologik va biologik jihatdan rivojlanib boshlaydi. Bunda bola ayrim xususiyatlarini otadan, bazilarini esa onadan o'tgan bo'ladi. Bolaning rivojlanishi uning tashqi ko'rinishiga ota-ona hech qanday ta'sir o'tkaza olishmaydi<sup>1</sup>.

Ona qornidagi embrion o'tkazadigan ruhiy holat "**Embirion psixalogiyasi** ,,deb ataladi. Ona qornidagi embiryon ona nimani his qilisa embiryon ham shuni his qiladi. Bazi hollarda ayollar o'zi hohlamagan holda homilador bo'lishadi. Bunday hollarda onada norozilik hissi bo'ladi. Ushbu holat bolaning ruhiyatiga ham o'z tasirini o'tkazib boradi. Natijda bola tug'ilgandan so'ng rivojlanish jarayonida har xil qiyinchiliklarga duch keladi. Ya'ni o'zini past baholash, doimiy ravishda norozi kayfiyatda yurishi, yonida qancha yaqinlari bo'lsa ham o'zini yolg'iz his qilishi kuzatiladi. Masalan ona homilador vaqtida ko'p asabiylashsa bola tug'ilgandan

---

<sup>1</sup> Vohidov.M., maktabgacha tarbiya psixologiyasi, T.,1970;  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

keyin juda asabiy, jizaki bo'lishi mumkin. Bu oqibatlar bolaning kelajagiga ham o'z ta'sirini o'tazib boradi va umring katta qismini egallaydi.

"Embrion psixologiyasi" atamasi embrionning (onaning qornidagi rivojlanayotgan homila) ruhiy va hissiy holatini, shuningdek, bu davrda ona va bola o'rtasidagi psixologik bog'lanishni o'rganadigan soha yoki tushunchani anglatadi. Ushbu tushuncha ko'proq onaning ruhiy holati va uning embrionga bo'lgan ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan<sup>2</sup>.

**Psixologik karakter** boalaning ona qornidan tushishi bilan rivojlanib boshlaydi. Bu karakter genetik karakter ustiga barpo qilinaydigan karakter hisoblanadi. Bola 9 oy ona qornida rivojlanibgina qolmay onadagi hususiyatlarni o'zida jamlaydi. Ona homiladorligida yaxshi kayfiyatda bo'lsa, chiroyli narsalarga qarasa, kitob o'qisa bolaning hulq atvoriga ham ijobiy tasir qiladi. Agarda ona pismiqlik, ayyor, yolg'on gapiraydigan bo'lsa bola uni hayotida qo'llaydi va ulardan bezori giyohvand bolalar bo'lish ehtimoli ham bor. Bolalarni qiziqishini yoshligidayoq shakillantirib borish zarur. Bolaga qancha ko'p narsa o'rgatsak uning miyyasi shunchalik tez rivojlanib boraveradi.

Psixologik xarakter insonning ichki dunyosi, hissiyoti va o'ziga xos fe'l-atvori sifatida uning hayotiy qarorlarini, munosabatlarini va faoliyatini belgilovchi asosiy omildir. Xarakter shaxsning o'ziga xosligini ifodalab, ijtimoiy muhit, tarbiya va tajribalar orqali shakllanadi. Xarakterning rivojlanishi va uni tushunish nafaqat insonning shaxsiy hayotini boyitadi, balki jamiyatdagi munosabatlarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik xarakterni chuqurroq anglash va uni maqsadli rivojlantirish orqali har bir inson o'z imkoniyatlarini samarali amalga oshirishi va ijtimoiy hayotga faol hissa qo'shishi mumkin.

Masaru Ibukaning uchdan keyin kech kitobida shunday keltirilgan doktor Suzuki bolalarga piyanina chalishni 2 3 yoshlaridayoq o'rgatib boshlagan Bolani bezdirib qo'ymaslik maqsadida uni birinchi navbatda qiziqtirgan va piyanina kuyini tinglatgan. Natijada bolalar piyanina chalishni juda puxta o'rgangan. Yevropada

---

<sup>2</sup> Adem Gunesh., Bola tarbiyasida to'g'ri ko'ringan xatolar  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

yosh oilalardan birida 2 farzandi bo'ladi va ularga konke uchish to'garagiga qo'yishadi bolalarning biri 7 yosh biri esa 10 yoshda bo'ladi. Konke uchishdagi qiyinchiliklarni 7 yoshli kichik farzandi oson yengib o'tadi va mukammal ravishda konke ucha oladadi. Katta farzandi esa qiyinchiliklarga duch keladi yengib o'tishi mushkul bo'ladi. Katta farzand ham o'rganadi ammo mukammal ravishda konke ucha olmaydi<sup>3</sup>.

Bolalarning bog'cha yoshini kutsak ularni rivojlanishdan olib qolayotgan bo'lamiz. Bola bor hona iloji boricha yorqin ranglar va turli bezaklar bilan bezatilgan bo'lishi kerak. Chunki bolaning rivojlanishiga atrof muhit va turli hil o'yinlarning ham ahamiyati katta. Bolani o'yindan cheklasak uni avvaylayman deb o'yinlardan tengdoshlaridan ajratib qo'sak bu tengdoshlaridan biroz bo'lsada orta qolish, odamovi bo'lib qolishiga olib keladi. Ona bolaning o'z tengdoshlari bilan birga o'ynashi bu onalar eplolmaydigan aqliy o'sishga sabab bo'ladi. Bola faqat ona bilan bo'lib qolsa u onasining yordamisiz hech bir ishni eplolmaydi va ulg'ayib katta hayotga oyoq qo'yganda ham o'z fikriga emas balki onaning fikri bilan ish qiladigan bo'lib qoladi. Bola o'zi uchun turli hil chegaralar qo'yib oladi, natijada yetuk shaxs bo'lganda ham oddiy bir boshqa shaharga ko'chib o'tish yoki ish joyini almashtirish ham ular uchun bit fojiadek tuyuladi.

Bolaning rivojlanishida biz to'g'ri deb o'ylagan hatolar ham kam emas. Bularning biri bu uyat hissi bola uyalsa bu biz buni yaxshi bolada hurmat shakillanyapti yoki shunga o'xshash ijobiy tuyg'ular shakillanyapti deb tushunamiz aslida esa mutlaqo nato'g'ri narsa bu. Yosh bolani hammani yonida uyaltirsak u uyat hissi bir umr bolani tark etmaydi va katta bo'ganda u hisni o'zida tuymaslik uchun boshqalarga jahl qiladi. O'zini aybdordek his qilishni hohlamaydi go'yoki shunday qilsa ko'ngli taskin topadi. Bunday hollarda ona juda katta ro'l o'ynaydi. Agarda ona bola bilan sog'lom munosabatda bo'lmasligining belgisi bu sabrsizligidir.

Bolaning qiliqlari onani charchatadi buning natijasida bolaning muloqot va o'yinga bo'lgan ehtiyojlari qondirilmaydi. Shunday ekan ona bolasi bilan sog'lom

---

<sup>3</sup> Masaru Ibuka ., Uchdan keyin kech  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

munosabat o'rnatilishi shart va bunga o'zini tayyorlashi kerak bo'ladi. Bola balog'at yoshiga yetgan vaqtda ota onadan juda ham katta kuch sabr toqat talab qilinadi. Negaki bolada ham jismonan ham fiziologik o'zgarishlar bo'ladi. Bunday vaqtda o'smir bolaga bir gap kam ikki gap esa ko'plik qilaydigan vaqt bo'ladi. Ular bilan shunchaki do'stona muloqotda bo'lish talab qilinadi. Bu yoshda bola o'ziga yaqin sirdosh qidiradi. Uni tinglaydigan bir do'st bo'lishini hohlaydi. Ushbu davrda sevgi, muhabbat va his tuyg'ularga beriluvchan bo'lishadi.

O'g'il bolalarda esa segaret chekish va spirtli ichimliklar ichish jarayonlari ham kuzatiladi. Bu davrda ota yoki ona birdan yaxshi muomilada bo'lsa bolaning ko'ziga bir ayg'oqchi kabi ko'rinadi va o'zini ota onasidan yanada uzoq tutadi. Bunday vaziyatlarda ularni tergap ular bilan ko'proq vaqt o'tkazish lozim ammo birdan o'zidan mehribon va g'amg'or inson yasab olsa bola ota onaga nisbatan gumonda yurish ehtimoli bor va bu holaning g'ashini keltiradi. Yana bir masalani ko'rib chiqsak ta'lim va tarbiya bunda bola yaxshi talim olgan bo'lsa yaxshi tarbiya olgan bo'ladimi? Bola oddiy bir aftobusda biro damning cho'ntagidan bildirmasdan pulini oladi. Bolaning bu harakatidan otasi juda ham hursand bo'ladi negaki o'zi cho'ntakkesar bo'ladi va yaxshi bilim bo'lmaganligin sababli bir necha bor militsiyaga tushadi. Bolasining bildirmasdan cho'ntakkesarlik qilishi bu borada yaxshi ta'lim olgani uni juda ham mamnun qiladi. Endi bir o'ylab ko'raylik ta'lim va tarbiya bir narsa ekanmi?

Ota ona bolasiga tarbiya berayotgan vaqtda uning manan yetuk jismonan ruhan sog'lom bo'lishini, halol bo'lishini o'ylaydi. Yuqoridagi ota va o'g'ilga qaraylik ular jismonan kamol topgan ammo manan ulg'aymaganining guvohi bo'lamiz albbata. Masaru Ibukaning "Uch yoshgacha – eng muhim davr" g'oyasi bolalar tarbiyasi va rivojlanishining dastlabki yillarida ota-onalar va pedagoglar uchun asosiy yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi<sup>4</sup>.

U bolalarning hayotining birinchi uch yili aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanish uchun eng muhim davr ekanligini ta'kidlab, ota-onalarning bu bosqichdagi faol

---

<sup>4</sup> Vohidov.M., maktabgacha tarbiya psixologiyasi, T.,1970

ishtirokini alohida urg'ulaydi. Ibuka bola tug'ilgandan keyin har bir lahza qadrli ekanini aytib, rivojlanish imkoniyatlarini boy bermaslikni maslahat beradi. Uning fikricha, bolaning iste'dodi va qobiliyatlari tug'ma emas, balki muhit, tarbiya va dastlabki yillarda yaratilgan sharoit orqali shakllanadi. Shu sababli, ota-onalar erta rivojlanishni qo'llab-quvvatlab, bolalarining kelajagini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu yondashuv hozirgi zamonaviy ta'lim tizimlarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, erta yoshdagi rivojlanishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishda dolzarb o'rin tutadi.

**Xulosa** qilib aytishimiz kerakki bola embrionlik davridan boshlab tarbiya qilinadi va rivojlantiriladi. Bolaning rivojlanishiga oiladagi insonlar atrof muhit ta'sir etadi. Qanday bo'lgan taqdirda ham inson doimo insonligini yo'qotmasligi lozim. Oiladagi mehribonlik va qo'llab-quvvatlash, ota-onaning hissiy barqarorligi, ijtimoiy munosabatlar va ta'lim tizimining sifati bolaning shaxsiyat sifatida shakllanishida asosiy omillar sanaladi. Shuningdek, muhitning turli xil rag'batlantiruvchi va ijodkorlikni rivojlantiruvchi jihatlari bolada qiziqish uyg'otib, uning iqtidorini ochishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vohidov.M., maktabgacha tarbiya psixologiyasi, T.,1970
2. Shoumarov.G'., Oila psixalogiyasi, T.,1994
3. Adem Gunesh., Bola tarbiyasida to'g'ri ko'ringan xatolar
4. Masaru Ibuka ., Uchdan keyin kech
5. Masaru Ibuka., Uchgacha ayni vaqti